

---

“Siz ekologiyaga oid qonunlarni bilasizmi?” ko’rik tanlovining 1-sektor bosqichi bo’lib o’tdi

Insonlar tabiatga azaldan qaram, ular tabiatsiz yashay olmaydi. Shuning uchun tabiatni asrashga barcha birdek mas’ul.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida “Siz ekologiyaga oid qonunlarni bilasizmi?” respublika ko’rik-tanlovi bo’lib o’tadi. 13-17 yanvar kunlari tanlovning saralash, 20-31 yanvar kunlari esa sektor bosqichlari tashkil etilishi belgilangan.

Tanlov shartlariga ko’ra Qo’shtepa tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi tasarrufidagi umumta’lim maktablari o’quvchilari ishtirokida 1-sektor bosqichi bo’lib o’tdi.

Unda 15-maktab jamoasi g’olib bo’lib, tuman bosqichiga yo’llanma olishdi.

2025-01-27 14:34:44